



"SPORT SOTSIOLOGIYASI: OLIY TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNI TARBIYALASH VA JAMIYATGA MOSLASHUV"

Xolmatov Ixtiyor Baxtiyorovich

G'aniyev Baxodir

Farg'ona Davlat Universiteti f.f.d professor
Farg'ona Davlat Universiteti Magistratura bolimi,
Sotsiologiya ixtisosligi,
1-kurs magistranti, tel.: +998916600577
E-mail: ihiyor0586@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14785950>

Anatatsiya: Ushbu maqolada sport sotsiologiyasi fanining universitetlar tizimiga integratsiyasining ahamiyati va shu sohadagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Sport sotsiologiyasi sportning jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Bu fan nafaqat sport sohasida, balki boshqa turli ijtimoiy fanlar, jumladan, pedagogika, biznes, psixologiya, huquqshunoslik kabi yo'nalishlarda ham o'quvchilarga katta foyda keltirishi mumkin. Maqolada sport sotsiologiyasining asosiy yo'nalishlari, jumladan, sport va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ijtimoiy stereotiplar, gender tengligi, irqiy muammolar va iqtisodiy jarayonlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, sport sotsiologiyasini universitetlarda o'qitishdagi asosiy muammolar, ularni bartaraf etish uchun takliflar keltirilgan.

Анатация: В статье рассматривается важность интеграции социальной социологии спорта в систему высшего образования, а также проблемы, с которыми сталкиваются университеты в этом процессе. Социальная социология спорта изучает влияние спорта на общество, его социальные, культурные, экономические и политические аспекты. Этот предмет не только важен для сферы спорта, но и может приносить пользу в других областях, таких как педагогика, бизнес, психология и юриспруденция. В статье рассматриваются основные направления социальной социологии спорта, включая взаимодействие спорта и общества, социальные стереотипы, гендерное равенство, расовые проблемы и экономические процессы. Также рассматриваются основные проблемы преподавания социальной социологии спорта в университетах, предложены пути их решения.

Article Annotation

This article discusses the importance of integrating the sociology of sport into higher education and the issues faced by universities in this process. The sociology of sport examines the impact of sport on society, its social, cultural, economic, and political aspects. This subject is not only important for the field of sport, but can also bring benefits to other disciplines such as pedagogy, business, psychology, and law. The article explores the key areas of sociology of sport, including the interaction between sport and society, social stereotypes, gender equality, racial issues, and economic processes. It also addresses the main challenges in teaching the sociology of sport in universities and suggests ways to overcome them.

Kalit so'zlar; Sport sotsiologiyasi, jamiyat, ijtimoiy tuzilmalar, gender tengligi, irqiy masalalar, iqtisodiy ta'sirlar, madaniyat, yoshlarning tarbiyasi, shaxsiy rivojlanish, oliy ta'lim, o'quv dasturi, mutaxassislar tayyorlash, tadqiqot infratuzilmasi, sport marketingi, homiylik, huquqiy masalalar, dopingga qarshi kurash, ommaviy tadbirlar.

Ключевые слова: Социология спорта, общество, социальные структуры, гендерное равенство, расовые вопросы, экономическое влияние, культура, воспитание молодежи, личностное развитие, высшее образование, учебные программы, подготовка специалистов, исследовательская инфраструктура, спортивный маркетинг, спонсорство, юридические вопросы, борьба с допингом, массовые мероприятия.

Keywords: Sociology of sport, society, social structures, gender equality, racial issues, economic impacts, culture, youth education, personal development, higher education, curriculum, specialist training, research infrastructure, sports marketing, sponsorship, legal issues, anti-doping, public events.

Kirish

Sport sotsiologiyasi — bu sportning jamiyatga ta'siri va ijtimoiy tuzilmalar sport faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadigan fan. Ushbu soha sportning nafaqat jismoniy faoliyat, balki ijtimoiy



birlashuv, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy omillarni rivojlantiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Sport jamiyatda ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirish, gender muammolarini hal etish va xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Sport sotsiologiyasini aynan Oliy ta'lim tizimida joriy etilishi bunda nafaqat mutaxassislik balki yondosh mutaxassisliklarga integratsiyalagan holda talabalarga fan sifatida o'tilishibir qator imkoniyatlarni ochadi. Zeroki sport yoshlarning jamiyat qoidalariga moslashishini ta'minlovchi kuchli ijtimoiy institutdir. Aynan jamoaviy sport turlari yoshlarda o'zaro hamkorlik, hurmat, birdamlik kabi sifatarni shakllanishiga yordam beradi. Biroq, ko'plab universitetlarda sport sotsiologiyasi fani to'liq yoki yetarlicha o'qitilmayapti. Bu malakali kadrlarning yetishmasligi, o'quv dasturlarining cheklanganligi kabi muammolar bilan bog'liq. Ushbu maqolada sport sotsiologiyasini universitetlarda o'qitishning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

Sport sotsiologiyasining asosiy mazmuni va yo'nalishlarini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin

Birinchidan sport va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarga e'tibor qaratilishi: Sport sotsiologiyasi jamiyatdagi sportni, uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini o'rganadi. Sport nafaqat jismoniy faoliyat, balki jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy jarayonlarning bir qismi sifatida qaraladi. Jamiyatda sport orqali ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar, o'zaro munosabatlar va identifikatsiya shakllanadi.

Ikkinchidan sportning jamiyatga ta'siri keng qamrovli bo'lib, sport orqali ijtimoiy stereotiplar, gender tengligi, irqiy masalalar, davlat siyosati va iqtisodiy ta'sirlar o'rganiladi. Masalan, sportda tenglik va adolat, erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlar, hamda turli etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar kabi masalalar sport sotsiologiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Uchinchidan sportning madaniyat bilan aloqalari o'ziga xosdir. U global madaniyat, milliy identifikatsiya va jamoaviy hayot bilan bog'liq. Masalan, sport musobaqalari va turnirlar (olimpiada, jahon chempionatlari) xalqaro madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Sportning turli mamlakatlardagi ijtimoiy ahamiyati, ularning sport madaniyati va urf-odatlarini ham o'rganiladi.

To'rtinchidan sportning iqtisodiy jihatlarini sport sotsiologiyasining yana bir muhim yo'nalishidir. Bu sportning iqtisodiy faoliyat sifatida tahlil qilinishi, masalan, sportni tijoratlashtirish, sportni biznesga aylantirish, sport sanoatining rivojlanishi, homiylik va reklama kabi sohalar. Bu jarayonlar sportning jamiyatdagi ta'sirini kuchaytiradi.

Beshinchidan sport yoshlarning tarbiyasi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayonida sportning o'zni va uning ma'naviy tarbiyada tutgan roli ham sport sotsiologiyasi doirasida o'rganiladi. Sportning yoshlarning jamiyatga moslashuvi, shaxsiyatining shakllanishi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishi, shuningdek, jismoniy va ruhiy sog'lig'ini yaxshilashdagi roli ham e'tiborda bo'ladi. Misol uchun Olimpiya o'yinlari sportni nafaqat musobaqa sifatida, balki tinchlik va birdamlik ramzi sifatida namoyon qiladi **[1]**.

Bizningcha Sport sotsiologiyasini Oliy ta'limning quyidagi yo'nalishlarda o'qitish zarur:

1. Pedagogika va jismoniy tarbiya: Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash va sport qadriyatlarini ta'lim jarayoniga kiritish.
2. Biznes va menejment: Sport marketingi va homiylik, sport tadbirlarini tashkil qilish masalalarini o'rganish.
3. Psixologiya va sotsiologiya: Sportning shaxs psixologiyasiga va jamiyat ijtimoiy tuzilmalariga ta'sirini o'rganish.
4. Huquqshunoslik: Sport sohasidagi huquqiy muammolarni, masalan, dopingga qarshi kurash va sportchilar huquqlarini himoya qilishni tadqiq qilish.

Ammo Sport sotsiologiyasini universitetlarda o'qitishda quyidagi muammolar mavjud:

Birinchidan mutaxassislarning yetishmasligi. Ko'plab o'qituvchilar umumiy sotsiologiya yoki jismoniy tarbiya sohasida mutaxassis bo'lib, sport sotsiologiyasining ixtisoslashgan jihatlarini yetarli darajada bilishmaydi.



Ikkinchidan o'quv dasturlarining cheklanganligi. Ko'plab universitetlarda sport sotsiologiyasi mustaqil fan sifatida emas, balki qo'shimcha kurs sifatida kiritilgan. Bu esa fan mazmunining yuzaki o'qitilishiga olib keladi.

Uchinchidan tadqiqot infratuzilmasining rivojlanmaganligi. Sport sotsiologiyasi bo'yicha milliy tadqiqotlar kam. Aksariyat adabiyotlar va tadqiqotlar xorijiy manbalardan olingan, bu esa milliy muammolarni chuqur o'rganishga imkon bermaydi.

To'rtinchidan Fan ommalashmaganligi. Jamiyatda sport ko'pincha faqat jismoniy faoliyat sifatida qabul qilinadi, uning ijtimoiy ahamiyati kam tushuniladi.

Kuzatuvimizga ko'ra yechimlar taklifi sifatida quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish zarur;

1. Sport sotsiologiyasini oliy ta'lim tizimida mustaqil fan sifatida joriy etish.
2. Fan dasturlarini boyitish -Sport sotsiologiyasi mustaqil kurs sifatida o'quv dasturlariga kiritilishi zarur. Bu fan faqat sport sohasiga emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy yo'nalishlarda ham talabalarga foydali bo'lishi mumkin.

2. Mutaxassislarni tayyorlash- Malakali o'qituvchilarni tayyorlash uchun xalqaro tajribadan foydalanish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va o'qituvchilarni chet elda stajirovkaga yuborish zarur.

3. Tadqiqotlarni rivojlantirish- Milliy sport sotsiologiyasi tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash uchun grant dasturlari tashkil qilish lozim. Shu bilan birga, sport va jamiyatga oid dolzarb masalalarni o'rganuvchi ilmiy markazlarni ochish kerak.

4. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish-Sport sotsiologiyasining ahamiyatini ko'rsatish uchun ilmiy konferensiyalar, seminarlar va jamoatchilikka ochiq darslar tashkil qilish kerak.

5.O'qituvchilarni tayyorlashni xalqaro darajaga ko'tarish.

Xulosa

Maqolada sport sotsiologiyasining oliy ta'lim tizimiga kirishi va uning jamiyatdagi ahamiyatini chuqurroq o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Sport sotsiologiyasi nafaqat sportni, balki jamiyatning turli ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bugungi kunda ko'plab universitetlarda sport sotsiologiyasining yetarlicha o'qitilmasligi, o'quv dasturlarining cheklanganligi va mutaxassislarning etishmasligi kabi muammolar mavjud. Bularni bartaraf etish uchun sport sotsiologiyasini mustaqil fan sifatida joriy etish, o'quv dasturlarini boyitish, malakali o'qituvchilarni tayyorlash va tadqiqotlarni rivojlantirish zarur. Shuningdek, fanni ommalashtirish va jamiyatda sportning ijtimoiy ahamiyatini keng targ'ib qilish uchun ilmiy tadbirlar va jamoatchilikka ochiq darslar o'tkazish muhimdir. Bu chora-tadbirlar sport sotsiologiyasining o'rganilishini kengaytirish va uni jamiyatda yuqori darajada qadrlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Burdyo P. Sport sotsiologiyasi. Moskva: Akademik loyiha, 2001.
2. Grum A. Sport va jamiyat: sotsiologik yondashuv. Sankt-Peterburg: Piter, 2012.
3. Vebber M. Protestant axloqi va kapitalizm ruhi. Moskva: Progress, 1990.
4. Rayt M. Globalizatsiya va sport. London: Routledge, 2005.
5. Haynts R. Sportning ijtimoiy jihatlari. Berlin: Springer, 2018